



UDK:371.03.

Feruza XAMROYEVA,
Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti
E-mail: hamroyeva87@mail.ru

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti Z.Begimqulov taqrizi asosida

TALABALARDA TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRUVCHI ICHKI OMILLAR

Annotatsiya

Ushbu maqola talabalar orasida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ichki omillarni tahlil qiladi. Tadqiqotchilik ko'nikmalari talabalar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ular ilmiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish va innovatsion g'oyalarni amalga oshirishda yordam beradi. Maqolada ichki omillar, jumladan, motivatsiya, o'z-o'zini baholash, shaxsiy qiziqishlar va o'rganish uslublari kabi jihatlar ko'rib chiqiladi. Ushbu omillarni aniqlash va rivojlantirish orqali talabalar tadqiqotchilik faoliyatida yanada samarali bo'lishlari mumkin.

Kalit so'zlar: Talabalar, tadqiqotchilik ko'nikmalari, ichki omillar, motivatsiya, o'z-o'zini baholash, o'rganish uslublari.

INTERNAL FACTORS THAT DEVELOP RESEARCH SKILLS IN STUDENTS

Annotation

This article analyzes the internal factors that influence the development of research skills among students. Research skills are crucial for students as they aid in achieving success in scientific activities and implementing innovative ideas. The article examines internal factors such as motivation, self-assessment, personal interests, and learning styles. By identifying and developing these factors, students can become more effective in their research activities.

Key words: Students, research skills, internal factors, motivation, self-assessment.

ВНУТРЕННИЕ ФАКТОРЫ, РАЗВИВАЮЩИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЕ НАВЫКИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация

Данная статья анализирует внутренние факторы, влияющие на развитие исследовательских навыков у студентов. Исследовательские навыки имеют важное значение для студентов, так как они помогают достигать успеха в научной деятельности и реализовывать инновационные идеи. В статье рассматриваются внутренние факторы, такие как мотивация, самооценка, личные интересы и стили обучения. Определяя и развивая эти факторы, студенты могут стать более эффективными в своей исследовательской деятельности.

Ключевые слова: Студенты, исследовательские навыки, внутренние факторы, мотивация, самооценка, стили обучения.

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – mustaqil fikrlovchi, ijodiy yondashuvga ega, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyor mutaxassislarni tayyorlashdir. Bunda bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarining shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, pedagogik faoliyat faqat tayyor bilimlarni yetkazish emas, balki doimiy izlanishni, tahlilni va yangilik yaratishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni ilmiy jihatdan asoslab berish hozirgi pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Tadqiqotchilik faoliyatining muvaffaqiyati ko'plab omillarga bog'liq. Ushbu omillar shartli ravishda ichki va tashqi omillarga ajratiladi. Ichki omillar talabaning individual psixologik xususiyatlari, motivatsiyasi, qiziqish darajasi, tanqidiy fikrlashi va ijodkorlik salohiyatini o'z ichiga oladi. Tashqi omillar esa pedagogning metodik yondashuvi, ilmiy rahbarlik sifati, universitetda yaratilgan ilmiy muhit, qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar va tashkil etilgan tadqiqotga yo'naltirilgan topshiriqlarga bog'liq.

Adabiyotlar tahlili. Ichki motivatsiya – bu shaxsning faoliyatni bajarishdan ichki zavq olishi, o'z-o'zini rivojlantirish istagi, bilimga chanoqlik va shaxsiy qoniqish orqali harakatga kelishidir [2]. Ryan va Deci tomonidan ishlab chiqilgan Self-Determination Theory (SDT) aynan ushbu motivatsiyaning asosiy manbalarini ilmiy asosda tahlil qiladi [6]. O'zini

belgilash nazariyasi (SDT) – bu insonning o'sishi, rivojlanishi hamda tug'ma psixologik ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan motivatsiya va shaxsiyat rivojlanishini izohlovchi makroteoretik yondashuv hisoblanadi. Mazkur nazariya shaxsning tashqi ta'sirlardan xoli holda mustaqil tanlovlar qilishi va ichki rag'bat asosida faoliyat yuritishini tushuntiradi. SDT doirasida inson xulq-atvorining qay darajada o'zini-o'zi rag'batlantirish va mustaqil boshqaruv asosida shakllanishi tahlil qilinadi. Bunda shaxsning harakatlari ichki motivatsiyaga (ya'ni faoliyatning o'zidan zavqlanish, bilimga chanoqlik) yoki tashqi rag'batlarga (mukofot, bosim, ijtimoiy kutilmalar) asoslanganligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ushbu nazariyaga ko'ra, insonning faoliyati samarali va barqaror bo'lishi uchun uning avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik kabi asosiy psixologik ehtiyojlari to'laqonli qondirilishi zarur. Ana shu ehtiyojlar ta'lim muhitida inobatga olinganida, talabalarda ichki motivatsiya kuchayadi, o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqish va izlanish faolligi ortadi.

Tahlil va natijalar. Ichki motivatsiyani oshirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

Qiziqish va ehtiyojlarni aniqlash: o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos keladigan mavzularni tanlash. Bu ularning o'zlarini qiziqitirgan narsalar bilan shug'ullanishlariga yordam beradi.

Maqsad qo'yish: o'quvchilarga aniq va erishish mumkin bo'lgan maqsadlar qo'yish. Bu ularga o'z yutuqlarini kuzatish va muvaffaqiyatlarini baholash imkonini beradi.

Mustaqillikni rag'batlantirish: o'quvchilarga mustaqil ravishda ishlash imkoniyatini berish. Bu ularning o'z-o'zini boshqarish va mas'uliyat hissini oshiradi.

Pozitiv fikrlash va o'z-o'zini baholash: o'quvchilarga o'z yutuqlarini tan olish va muvaffaqiyatlarini nishonlash imkoniyatini berish. Bu ularning o'zlariga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Qiziqarli va interaktiv darslar: darslarni qiziqarli va interaktiv qilish orqali o'quvchilarning diqqatini jalb qilish. Masalan, o'yinlar, muammolarni hal qilish va amaliy mashg'ulotlar orqali o'qitish.

Demak, ichki motivatsiya – talabaning o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil o'rganish, izlanish va ijodiy yondashishga bo'lgan ichki ehtiyoji bilan bog'liq barqaror psixologik holatdir. O'zini belgilash nazariyasining asosiy tamoyillariga ko'ra, ushbu motivatsiyani rivojlantirish uchun ta'lim muhitida psixologik ehtiyojlarning qondirilishi, avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlikning ta'minlanishi zarur hisoblanadi. Pedagogik jarayonda bu ehtiyojlarning inobatga olinishi talabalarning nafaqat motivatsion, balki tadqiqotchilik kompetensiyalarini ham samarali shakllantiradi.

Qiziqish esa o'quv motivatsiyasining psixologik asosini tashkil etadi va o'zining barqarorlik darajasi, qamrov kengligi hamda faoliyatga ta'sir doirasi bilan tavsiflanadi. Bu holatda shaxsning intellektual, hissiy, axloqiy va irodaviy jihatlari o'zaro murakkab aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Bunday integratsiyalashgan holat talabaning ilmiy izlanish faoliyatiga jalb qilinishini, tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishini ta'minlovchi ichki turtki sifatida xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda "qiziqish" tushunchasi turli xil yondashuvlar orqali izohlanadi. Umuman olganda, qiziqish — bu shaxsning muayyan obyektga yoki faoliyatga tanlab yo'naltirilgan munosabati bo'lib, unda hissiy va aqliy komponentlar uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Qiziqish – insonning obyektga hayotiy ahamiyati va hissiy jozibasi tufayli tanlangan munosabati.

O'quvchilarni qiziqitirishda tabiat, fan, ilm va amaliy mashg'ulotlarga e'tibor berish juda muhim. Bu usullar orqali o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin:

- Tabiat bilan tanishish: o'quvchilarni tabiat bag'riga olib chiqish, tabiat hodisalarini kuzatish va o'rganish orqali ularning qiziqishini oshirish mumkin. Bu ularga tabiatning go'zalligini va murakkabligini tushunishga yordam beradi.

- Fan va ilmiy tajribalar: o'quvchilarga fan va ilmiy tajribalarni ko'rsatish, laboratoriya ishlarini bajarish imkoniyatini berish orqali ularning ilmga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Bu ularga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi.

- Amaliy mashg'ulotlar: o'quvchilarga turli amaliy mashg'ulotlar, masalan, qo'l mehnati, texnologiya va san'at bilan shug'ullanish imkoniyatini berish orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Bu ularga o'z qobiliyatlarini namoyon qilish va yangi narsalarni o'rganish imkoniyatini beradi.

Tanqidiy fikrlash – talabaning ichki motivatsiyasi va bilishga bo'lgan intellektual ehtiyojini faollashtiruvchi asosiy kognitiv omillardan biridir. Bu fikrlash turi shaxsning o'z-o'zini anglash, shubha asosida savollar berish, dalillar asosida mulohaza yuritish, mavjud axborotlarni tahlil qilish va asosli xulosalar chiqarishga yo'naltirilgan faol intellektual jarayondir. Shu bois tanqidiy fikrlash talabalarda mustaqil fikrlash madaniyati va tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy manbalarda tanqidiy fikrlash – bu shaxsdan fikr yuritish, muqobil yechimlarni ko'rib chiqish va oqilona qarorlar

qabul qilishni talab qiladigan tafakkur shakli sifatida ta'riflanadi. Bu jarayon odamlarning e'tiqodi, xatti-harakatlari va qarorlarini asoslashda muhim rol o'ynaydi. Tanqidiy fikrlash insonga mantiqiy xulosalar chiqarish, murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish, masalaning turli jihatlarini ko'rib chiqish orqali yanada asosli va ishonchli qarorlar qabul qilish imkonini beradi [1].

Tanqidiy fikrlash tushunchasining shakllanishida amerikalik faylasuf Jon Dyuidan boshlangan yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Dyui tanqidiy fikrlashni "reflektiv fikrlash" deb atagan bo'lib, uni "har qanday e'tiqod yoki bilimni uni qo'llab-quvvatlovchi sabablar va u keltirib chiqaradigan oqibatlar nuqtai nazaridan faol, izchil va sinchkovlik bilan tekshirish" deb ta'riflagan [3].

Bugungi kunda esa tanqidiy fikrlashga teng darajada ahamiyatga ega bo'lgan ijodiy (kreativ) fikrlash ham shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyotning muhim ko'rsatkichiga aylangan. Kreativ fikrlash – bu yangi g'oyalarni ilgari surish, noodatiy yechimlar topish va mavjud muammolarga yangicha yondashuvni shakllantirish qobiliyatidir. Ushbu ko'nikma yosh avlodning zamonaviy texnologiyalar va tezkor axborot oqimi sharoitida raqobatbardosh bo'lishi uchun zaruriy intellektual tayyorgarlikni shakllantiradi.

Kreativ fikrlash bugungi kunda yoshlar egallashi kerak bo'lgan muhim ko'nikma hisoblanadi. Ushbu ko'nikma, yoshlarga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olish, oddiy savodxonlikdan tashqari, tashabbuskorlikni ham talab qiladigan, shiddat bilan o'zgarayotgan davrda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradigan ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega [4].

Kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi [7].

O'quvchida kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi [5].

Kreativ fikrlash jamiyat hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan, shaxsning tafakkuri bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanib, shaxsda, ayniqsa, yoshlarda ushbu ko'nikmani shakllantirish kelgusida mamlakat taraqqiyotining muhim elementlaridan biri hisoblanadi [8].

Demak, XXI asr talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh va malakali kadrlarni tayyorlashda kreativ fikrlashni rivojlantirish muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu ko'nikma nafaqat o'quvchining tafakkurini faollashtiradi, balki uni o'z-o'zini anglash, muammoga noodatiy yondashish, yangi g'oya va yechimlarni ishlab chiqishga yo'naltiradi. Kreativ tafakkur shaxsning intellektual salohiyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti va innovatsion rivojlanishining muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, yosh avlodda mazkur ko'nikmani shakllantirish kelgusida mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish, ilmiy-texnologik yutuqlarni chuqur o'zlashtirgan mutaxassislar tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa. Yuqoridagi ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni ko'p qirrali bo'lib, ichki va tashqi omillarning o'zaro uzviy ta'sirida kechadi. Ayniqsa, ichki omillar – shaxsiy motivatsiya, qiziqish, tanqidiy va kreativ fikrlash kabi psixologik hamda kognitiv jarayonlar – talabalarni ilmiy izlanishga jalb qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu

omillar talabani o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji, bilishga chanqoqligi va mustaqil o'rganishga intilishini rag'batlantirib, ularning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Birinchidan, ichki motivatsiyaning kuchayishi talabani bilim olishdan zavq olishini, maqsad qo'yish va unga erishish jarayonida faol bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida talabani tadqiqotchilik faoliyatida barqaror izlanish olib borishiga imkon yaratadi. Ikkinchidan, qiziqishning rivojlanishi ilmiy faoliyatni shaxs uchun qadrli va mazmunli qiladi, bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish orqali ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Uchinchidan, tanqidiy fikrlashning shakllanishi talabalarni mantiqiy tahlil qilish, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish, muammolarga oqilona yondashishga undaydi. To'rtinchidan, kreativ fikrlashning rivojlanishi esa ularni yangicha g'oyalarni ilgari surishga, noodatiy yondashuv asosida muammolarni hal etishga va innovatsion faoliyatga tayyorlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida psixologik ehtiyojlarni qondirish, ilmiy muhitni mustahkamlash va individual imkoniyatlarni hisobga olish muhimdir. Ichki omillarning pedagogik jarayonda qo'llab-quvvatlanishi talabalarda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga nisbatan barqaror motivatsiya shakllantiradi, ularning o'z-o'zini anglash va ijodiy rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi.

Demak, XXI asr ta'limi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – bu nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlaydigan, tanqidiy va kreativ tafakkurga ega bo'lgan, ilmiy-tadqiqot faoliyatida faol ishtirok eta oladigan kadrlarni tayyorlashdir. Ichki omillarni chuqur o'rganish va ularni amaliyotda samarali qo'llash pedagogik jarayonning sifatini oshiradi hamda mamlakatning intellektual salohiyatini yuksaltiradi. Natijada, yosh avlod ilmiy-texnologik taraqqiyotga faol hissa qo'shadigan, raqobatbardosh va innovatsion fikrlovchi mutaxassislar sifatida shakllanadi.

ADABIYOTLAR

1. Baron J., Sternberg R. J. Teaching thinking skills: Theory and practice. – New York: W. H. Freeman, 1987. – 275 p
2. Deci E. L., Ryan R. M. Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. – New York: Plenum, 1985. – 145 p.
3. Dewey J. How we think: A restatement of the relation of reflective thinking to the educative process. – Boston: D. C. Heath & Co., n.d. – 200 p.
4. Drapeau P. Sparking student creativity: Practical ways to promote innovative thinking and problem solving. – Alexandria, Virginia: ASCD, 2014. – 176 p.
5. Oripova M. Q. PISA – o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturining ahamiyati. // Konferentsiya materiallari. – Toshkent, 2022. – B. 166–169.
6. Ryan R. M., Deci E. L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. // American Psychologist. – 2000. – T.55, №1. – P. 68–78.
7. Xotamov I. S., Olimov M. K., Madrahimova G. R., Foziljonov I. S. Kreativ fikrlash. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 210 b.
8. Yuvashov Sh., Akbarov B. Kreativ fikrlash. O'quv qo'llanma. – Namangan, 2024. – 176 b.